

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 9 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 9 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пулатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA PIRENEY YARIM OROLIDAGI KORTESLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI	10-14
<i>Azizbek Xolliyev</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA TOG'-KON SANOATIDA BRITANIYA SARMOYASINING TUTGAN O'RNI	15-20
<i>Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINING SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI (TARIXIY TAHLIL)	21-25
<i>Eshimov Shaxridin Xujayorovich</i> SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI TARG'IBOTCHILIK FAOLIYATI VA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	26-31
<i>Намазова Умида Нормурадовна</i> ИЛК ЎРТА АСРЛАР СУҒДДА НИКОҲ: ШАКЛЛАНИШИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ	32-41
<i>Самадов Искандар Исмамович</i> ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (ХХСР)ДА ЕР-СУВ МАСАЛАСИ	42-48
<i>Rustamova Madina Musoqulovna</i> SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALARGA QO'SHGAN HISSASI	49-56
<i>Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna</i> SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA AMALIYOTLARI... ..	57-64
<i>Tursunov Javlonbek Akrom o'g'li</i> MUQADDAS QADAMJOLAR. SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY TOPONOMIYASINING MUHIM TARKIBIY QISMI	65-68

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tolipova Baxtigul</i> MAMLAKAT OZIQ-OVQAT SANOATIGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNING EKONOMETRIK TAHLILI	69-77
<i>Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL-KREDIT SIYOSATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI	78-83
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич, Хасанова Руфина Раисовна</i> ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	84-96
<i>Meliyeva Nargiza Eshboyevna</i> INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLARING TAJRIBASI	97-104

<i>Исраилов Рустам Ибрагимович</i> КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	105-109
<i>Jumaniyazov Inomjon To'raevich</i> APPLICATION OF ESG PRINCIPLES IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN INVESTMENT FUNDS	110-120
<i>Amonov Navro'zxon Saloxiddin o'g'li</i> MINTAQAVIY MEHNAT BOZORIDAGI ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI ISTIQBOLLASHTIRISH YO'LLARI	121-129
<i>Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi</i> ROBOTLASHTIRISH DAVRIDA MEHNAT BOZORINING O'ZGARISHI: TO'RTINCHI SANOAT INQILOBI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....	130-138
<i>Kalbayev Muratbay Aytbaevich</i> AYLANMA MABLAG'LARNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	139-144
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Ernazarova Yorqinoy Ollaberganovna</i> RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KADRLAR XIZMATINI TASHKIL ETISH: ODOB-AXLOQ QOIDALARI VA KASBIY MADANIYAT TALABLARIGA RIOYA ETILISHINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI	145-155
<i>Ahrorova Shahlo O'rinboyevna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING TAKOMILLASHUVI JARAYONI	156-161
<i>Рахманов Баҳодир</i> АЛИШЕР НАВОЙЙ КОМИЛ ИНСОН КОНСЕПСИЯСИДА СИНЕРГЕТИК ҲОЯЛАР ИНЪИКОСИ	162-170
<i>Нуралиева Насиба Ахмадуловна</i> ЖАДИД МУТАФАККИРЛАРИ ИЖОДИДА ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ	171-176
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Fayzulloev Otabek Muhammadovich</i> KATTALAR FOLKLORINING TARKIBIY QISMI – BOLALAR FOLKLORI HAQIDA.....	177-184
<i>Тоқимбетова Гулбахор Абатбаевна</i> ЎЗБЕК-ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ИРФОНИЙ ОБРАЗЛАР	185-190
<i>Yusupova Sadokat Alijon qizi</i> “BOBURNOMA”NING YAPONIYADA O'RGANILISHI	191-197
<i>Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi</i> JAHON TILSHUNOSLIGIDA POLISEMIYA HODISASIGA LINGVISTIK YONDASHUV (RUS VA INGLIZ TILSHUNOSLIGI MISOLIDA)	198-201
<i>Tangriyev Valisher Azamovich</i> SOMATIK IFODALAR ORQALI BERILGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNING QIYOSIY TADQIQI: “ANOR” HIKOYASI MISOLIDA	202-206

<i>Abulova Zilola Azimovna</i> INGLIZ AFORIZMLARINING TARKIBIDA BIR JUMLA HAMDA QO'SHMA GAPLAR BILAN IFODALANGAN AFORIZMLAR XUSUSIYATLARI	207-201
<i>Qurbonova Dilnoza Olimovna</i> TYPES AND FUNCTIONS OF ADVERTISEMENT IN ENGLISH AND UZBEK.....	210-216
<i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i> ASQAR MAHKAM IJODIDA BUVI OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI	217-221
<i>Babajanova Aziza Rustamovna</i> ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA BAHOR MAVZUSINING BADIY TALQINI	222-227
<i>Khursanova Laylo Bakhtiyarovna</i> REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF "PATIENCE" IN SPECIAL ENGLISH DICTIONARIES	228-232
<i>Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO'Z TURKUMI TADQIQI	233-238
<i>Samadova Visola Baxtiyor qizi</i> INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FE'L FRAZEOLOGIK BIRLIKLARLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI	239-242
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Tўlaganova Gulchexraзахитовна, Гофурова Дилафруз Мурод қизи</i> AЁЛЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ РЕЖАЛАШТИРИШ, ЮЗАГА КЕЛАДИГАН ТЕРГОВ ВАЗИЯТЛАРИ ВА ВЕРСИЯЛАРНИ ИЛГАРИ СУРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	243-252
<i>Tosheva Maftuna Anvar qizi</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING TRANSPLANTATSIYASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR	253-262
<i>Ikramov Sherzod Raximdjanoich</i> VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	263-266
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Tohirova Mohigul Umir qizi</i> KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING IJTIMOY UMIDSIZLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK O'RGANISH. (L.I.VASSERMANNING "IJTIMOY FRUSTRATSIYA (UMIDSIZLIK) DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH METODOLOGIYASI" ASOSIDA)	267-274
<i>Nasriddinov Dadaxon Komiljonovich</i> OLIY HARBIIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIB BORILGAN PEDAGOGIK TAJRIBASINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI	275-281
<i>Xojaniyazova Inkar Jumanazarovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI	282-292
<i>Ashurova Marhabo Sayfulloyevna</i> BUXORO JADIDLARI VA YANGI USUL MAKTABLARIDA O'QITISH IMKONIYATLARI	293-301

<i>Алимова Нигора Исраиловна</i> ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ, НАХОДЯЩИХСЯ НА ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ	302-308
<i>Матажонова Гулноза Каримовна</i> IJTIMOIY FANLARNI TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI	309-313
<i>Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi</i> GRAMMATIK MINIMUM VA UNI O'QITISH METODLARI	314-319
<i>Norboyev Zafar Abdumuminovich</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA CEFR ME'ZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI	320-323
<i>Axmedova Zuxraxon Tulyanbayevna</i> QO'L TO'PI O'YININING JISMONIY JIHATDAN O'QUVCHILARNING O'QISHNI TUSHUNISHLARIGA TA'SIRI	324-329
<i>Юсупова Заррина Курбоновна</i> УНИКАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ВЫЗОВЫ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ	330-334
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i> МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI	335-340
<i>Nurbayeva Xolniso Uralovna</i> GENDER STREOTIPLAR GENDER MADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA	341-345
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIZIMLI FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MUHIM PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	346-351
<i>Mustayeva Guliston Bo'riboevna</i> TIBBIY TA'LIMDA AKS ETTIRISH AMALIYOTINING AHAMIYATI: UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA KO'MAKLASHISH	348-356
<i>Ahmedbekova Maxpuzaxon</i> TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA INNOVATSION JIHATLARI	357-362
<i>Utkirov Abbas Meyliyevich</i> ARTIFICIAL INTELLIGENCE IMPACT ON HIGHER EDUCATION QUALITY AND EFFICIENCY	363-388
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i> BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANI ORQALI TANQIDIY-TAHLILIIY HAMDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	389-393
<i>Maxliyo Qalandarova</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCILARNING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI.....	394-399

Received: 30 August 2024
Accepted: 5 September 2024
Published: 15 September 2024

Article / Original Paper

THE STUDY OF THE ADJECTIVES IN UZBEK LINGUISTICS

Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi

NNUz Uzbek philology, master's student of the first stage

diyorovamohlaroyim@gmail.com

Abstract. This article reveals the role and importance of the adjective phrase in Uzbek linguistics. The researches carried out in the framework of the quality word group are given in a gradual form, the main works done from the beginning of the 20th century until today are briefly described and opinions are expressed. Differences and significant aspects of the research work are revealed. The scientific works carried out in recent years are discussed in detail, examples and samples are given. The peculiarities and achievements of each described scientific research have been studied. The important places of each scientific research are highlighted separately.

Keywords: adjectives, colour adjectives, semantic groups, connotation, linguoculturology, degrees of adjectives, comparative-typology.

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO'Z TURKUMI TADQIQI

Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi

O'zMU O'zbek filologiyasi, I bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sifat so'z turkumining o'zbek tilshunosligidagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Sifat so'z turkumi doirasida qilingan tadqiqotlar tadrijiy ko'rinishda berilgan, XX asr boshlaridan bugungi kungacha qilingan asosiy ishlar qisqacha bayon qilingan va fikr-mulohazalar bildirilgan. Tadqiqot ishlaridagi farqli va ahamiyatli jihatlar ochib berilgan. So'nggi yillarda amalga oshirilgan ilmiy ishlarga keng to'xtalib o'tilib, misollar va namunalar keltirilgan. Har bir tavsiflanayotgan ilmiy tadqiqotning o'ziga xosliklari, yutuqlari o'rganilgan. Har bir ilmiy tadqiqotning muhim o'rinlari alohida ajratib ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: belgi bildiruvchi so'zlar, rang-tus sifatleri, semantik guruhlar, konnotatsiya, lingvokulturologiya, sifat darajalari, qiyosiy-tipologiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I9Y2024N33>

Kirish. Mustaqil so'z turkumlari tilshunoslikning eng keng tadqiq doirasiga tortiladigan jihatlaridan biridir. Chunki ularni o'rganish har bir tilda muhim ahamiyat kasb etadi. Belgi bildiruvchi so'zlar jahondagi deyarli barcha tillarda salmoqli o'rinni egallaydi. Ularning ma'noviy guruhleri, semantik-funksional, sintaktik-grammatik xususiyatlarida o'xshashliklar va farqli jihatlar yaqqol ko'zga tashlansa-da, tadqiqot mavzulari aksariyat hollarda o'xshashdir.

O'zbek tilshunosligida sifatni alohida so'z turkumi sifatida e'tirof etish va o'rganish o'tgan asrda boshlandi. Ko'plab turkolog olimlar dastlab sifatning mustaqil so'z turkumi ekanligiga shubha bildirganlar, ular belgi ifodalovchi so'zlarni ot tarkibida o'rganish ma'qul deb hisoblaganlar. O.Bo'tling, N.F.Katanov kabi olimlar sifat va otni bir so'z turkumi deb

qaraganlar. Bunday mulohazalarga ba'zi ot so'z turkumidagi so'zlarning ham belgi ma'nosidagi aniqlovchi vazifasida kela olishi, ba'zi sifatlarning esa sintaktik planda otga o'tib qolishi sabab bo'lgan. Ammo keyinchalik P.M.Melioranskiy, M.A.Kazembak kabi turkologlar sifadni alohida so'z turkumi ekanligini ta'kidlaganlar va uning darajalanish xususiyatini e'tirof etganlar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. XX asrning 20-yillaridan boshlab darsliklarda sifat so'z turkumining qisqacha qoidalari, ta'rifini berish boshlandi. Shu davrda yaratilgan "O'zbekcha til saboqligi" kitobida bu so'z turkumi "Supat" shaklida beriladi. Abdurauf Fitrat o'zining "Sarf" asarida bu turkum so'zlarni "Sufatlar" mavzusi ostida beradi va oq, qora, katta, qisqa kabi sifatlarning tub ekanligini ta'kidlaydi, yasama sifatlarga ta'rif berib, bir qator sifat yasovchi qo'shimchalarni misol tariqasida keltiradi. Ammo Fitrat sifat darajalarini hosil qiluvchi qo'shimchalarni ham sifat yasalishiga kiritib yuborgan, shuningdek, bugungi kunda sifatosh sifatlarda qaraladigan uchar, oqar, o'qug'an, yozilg'an kabi shakllarni ham yasama sifatlarga qatorida keltiradi. 1937-yilda Q.Ramazon va H.Qayyumiyalar tomonidan yaratilgan o'rta maktablar uchun grammatika darsligida sifat va uning yasalishiga doir ma'lumotlar ancha takomillashganini ko'rish mumkin. 40-50-yillarda ham Z.Ma'rufov "O'zbek tili sifat darajalari", G'.Abdurahmonov "Hozirgi o'zbek tilida sifatlarning substantivatsiyasi (otlashish)", O.Madrahimov "Hozirgi o'zbek tilida yangi yasalgan sifatlarga" mavzularidagi ishlarini himoya qilganlar. Mashhur tilshunos olim Ayub G'ulomov esa "Morfologiyaga kirish" kitobida sifatlarga, jumladan, ularning otlashishi haqidagi fikrlarini bildirib o'tgan.

60-yillarda qilingan eng salmoqli ishlardan biri olim M.Sodiqovaga tegishli edi. Olimaning 1963-yilda himoya qilgan ishi "O'zbek tilida rang-tus bildiruvchi sifatlarga" deb nomlangan. 1974-yilda esa olimaning "Hozirgi o'zbek tilida sifatlarga" nomli monografiyasi e'lon qilinadi. Bu sifat so'z turkumi yuzasidan qilingan keng hajmli ishlardan biri edi. Xususan, bu monografiyada sifatlarga kategoriyasining umumiy xususiyatlari, uning semantik turlari, strukturasi, darajalari ilmiy asoslangan. Kitobning birinchi bo'limida sodda va murakkab sifatlarga, ularning o'z ichida bo'linishi, sifatlarga yasovchi qo'shimchalar va ularning ma'no xususiyatlari, qo'shma va birikmali sifatlarning komponent modellari haqida ilmiy ma'lumotlar beriladi. Monografiyada sifatlarga semantik jihatdan 9 turga bo'linadi:

1. Xarakter – xususiyat, xossa va qimmat bildiruvchi sifatlarga: *yoqimtoy, badjahl, muloyim*.

2. Holat bildiruvchi sifatlarga: *chiroyli, suluv, latif*.

3. Rang-tus bildiruvchi sifatlarga: *zangor, kulrang, yashil*.

4. Shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlarga: *dumaloq, yassi, uzun*.

5. Hajm-o'lchov-masofa bildiruvchi sifatlarga: *tor, chuqur, mayda*.

6. Maza-ta'm bildiruvchi sifatlarga: *shirin, totli, mazali*.

7. Hid bildiruvchi sifatlarga: *xushbo'y, qo'lansa, muattar*.

8. Vazn-og'irlik bildiruvchi sifatlarga: *zil, pardek, og'ir*.

9. O'rin-paytga munosabat bildiruvchi sifatlarga: *kuzgi, kechki, avvalgi [2.49-55]*.

Prof. R.Qo'ng'irov (1933-1994) o'zbek tilshunosligi tarixida morfologik uslubiyat muammolarining dastlabki yirik tadqiqotchisi hisoblanadi. R.Qo'ng'irov dastlab ilmiy to'plamlardan birida "Sifat stilistikasi" nomli ko'lamdor maqolasi bilan ishtirok etdi. Bu maqola sifatlarga asosiy grammatik va semantik xususiyatini ta'kidlovchi quyidagicha ta'rif

bilan boshlanadi: “Sifat ma’lum bir belgini ko’rsatuvchi so’zlar gruppasi tarzida mustaqil, ammo funksiyasi jihatidan boshqa so’z turkum (ot va otlashgan so’z)larning ma’lum xususiyatlarini aniqlashtiruvchi, uning ma’nosiga aniqlik kiritishga yordam beruvchi so’zlar hisoblanadi”. Shundan keyin olim *magazindan olma sotib oldim* va *magazindan qizil olma sotib oldim* gaplarini o’zaro tafovut qilib, keyingi gapdagi qizil leksemasi xarid qilinayotgan narsaning rangini oydinlashtirishga va aniqlashtirishga xizmat qilishini uqtirgan.

Muhokama va natijalar. Mustaqillik sharofati bilan ko’plab sohalar qatori tilshunoslik fani rivojiga ham keng yo’l ochildi. Sovet davrida qoralangan bir qator ajdodlarimizning ilmiy merosini chuqur o’rganish imkoniyati paydo bo’ldi, tilshunoslikda ham bu ilmiy meroslarni lingvistik tahlil va tadqiqqa tortish uchun sharoit yuzaga keldi. O’tgan asr oxirida shunday salmoqli ishlar qatorida sifat so’z turkumining ham hali o’rganilmagan jihatlari ustida tadqiqotlar olib borildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida A.Abdualazizov o’zining “O’zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi” kitobida morfonologik alternatsiyalarning (a-o: tarqamoq-tarqoq) sifat yasashida sermahsul usullardan biri ekanligini ta’kidladi. Holat bildiruvchi sifatlarning semantik maydoni A.Hoshimov tomonidan o’rganildi. 1999-yilda M.Mamadaliyeva “O’zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti” nomli tadqiqotida rang-tus bildiruvchi sifatlarning konnotatsiyasini yoritib berdi.

2004-yilda Z.Mamarajabova tomonidan “O’zbek tilida sifatlarning konnotativ ma’nolari” nomli dissertatsiya yozildi. Z.Mamarajabova konnotatsiya hodisasi va sifatning o’rganilish tarixi, o’zbek tilshunosligida konnotatsiya va hamda sifatlarning ma’no turlari, semantik-stilistik xususiyatlari, sifat darajalari, fe’l-atvor, holat, rang-tus, shakl-ko’rinishni ifodalovchi so’zlar, hajm-o’lchovni belgilovchi, maza-ta’mini, hidni, vazn va o’rin-paytga munosabat bildiruvchi so’zlarni, sifatning darajalari, aynan, sifatlarning ozaytirma va orttirma darajalarini badiiy matn asosida tahlil qiladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, mustaqillik tufayli mumtoz shoirlarimiz ijodini chuqur tahlil qilish, ulardagi ramziylikni ko’rsatib berish imkoniyati tug’ildi. Sifatlar, ayniqsa, rang-tus bildiruvchi sifatlar eng keng tarqalgan simvollar hisoblanadi. Mumtoz shoirlarimiz sifatlarning bu jihatidan ustalik bilan foydalangan. Alisher Navoiyning “Xamsa”si turkumidagi “Sab’ai sayyor” dostoni buning yorqin misolidir. S.Utanova Alisher Navoiy ijodidagi rang simvolikasini tadqiq etdi va ranglar insonlar ruhiyatiga kuchli ta’sir etuvchi omil ekanini ta’kidlaydi hamda sharq mamlakatlarida haftaning har bir kuni o’ziga xos rang bilan yuritilishini aytib o’tadi: Qora – Shanba; Sariq – Yakshanba; Yashil – Dushanba; Qizil – Seshanba; Ko’k – Chorshanba; Sandal – Payshanba; Oq – Juma.

Keyingi davrlarda tilshunoslikning turli muammolarini nafaqat bir til doirasida, balki ikki yoki uch qardosh va qardosh bo’lmagan tillar doirasida o’zaro qiyoslash-chog’ishtirish yanada kuchaydi. Bunday tadqiqotlar bir til oilasiga kiruvchi yoki turli til oilalariga mansub tillardagi hodisalarning umumiy va xususiy jihatlarni kengroq tushunishga yordam bermoqda.

Bugungi kunda tilshunoslikda yangi yo’nalishlar sifatida qaralayotgan bir qator fanlar doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borish keng tusga kirmoqda. Bu kabi yo’nalishlar sirasiga kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, neyrolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, matn lingvistikasi kabilarni kiritish mumkin. Bu yo’nalishlarda qilinayotgan tadqiqotlar doirasidan sifat so’z turkumi ham chetda qolayotgani yo’q.

A.Ziyayev o'zining "Turli tizimli tillarda sifat darajalari kategoriyasining kognitiv tadqiqi masalalari" nomli maqolasida zamonaviy o'zbek, rus va ingliz tillaridagi sifat so'z turkumi va daraja kategoriyasini qiyosiy-tipologik aspektda tadqiq qildi. Bu maqolada muallif sifat darajalarini kognitiv talqin etilishi qanchalik ahamiyatli ekanligini ko'rsatib berdi, sifat darajalarini "ozaytirma – me'yor – orttirma" tarzida tavsifladi va bu sxema dunyoning barcha tillari uchun xos ekanligini, o'zbek, rus va ingliz tilidagi sifat darajalarini tushuntirishda shu andozaga asoslanish kerak ekanligini ta'kidladi. Shuningdek, u an'anaviy grammatikalarda qo'llanib kelingan oddiy daraja – positive degree – положительная степень atamalari o'rnida me'yoriy daraja – ordinary degree – ординарная степень atamalarini qo'llash mantiqan o'rinliroq deb hisoblaydi [3.84].

Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan fan hisoblanadi. Sifat so'z turkumi doirasida qilingan eng yangi ishlardan bir qanchasi aynan shu yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan. Xususan, 2019-yilda B.Qodirova "Belgi bildiruvchi leksemalarning lingvokulturologik xususiyatlari" nomli dissertatsiyasini himoya qildi. Dissertatsiyada rus va o'zbek tillaridagi belgi bildiruvchi leksemalar lingvokulturologik yo'nalishda, chog'ishtirma aspektda tadqiq etildi. Olima rus va o'zbek tillaridagi belgi bildiruvchi leksemalarda aks etgan madaniy universalialarni aniqlashga, madaniy konsept ifodalagan belgi bildiruvchi leksemalarni lingvokulturemasifatida tahlil etishga, belgi bildiruvchi leksemalar asosidagi barqaror birikmalar semantikasini yoritishga va lakunar va realiya birliklarni aniqlashga harakat qiladi.

Tadqiqotda shaxs belgisini bildiruvchi lingvokulturemalar "qiyofa", "xarakter-xususiyat", "ruhiyat" semalari asosida tahlil qilingan.

O'zbek tilidagi "ijobiy qiyofa" semali leksemalar sifatida *norg'ul, polvon, devqomat, baland bo'yli, pahlavon, husndor, ko'hlik, suluk, hurliqo, xushro'y, go'zal* kabi bir qator sifatlar sanab o'tiladi va "qiyofa" semali ayrim so'zlarda gender xoslanganlik borligi ta'kidlanadi. Masalan, *suluv* sifati qizlarning tashqi ko'rinishini tasvirlash uchun qo'llaniladi. Tadqiqotda bunday so'zlar ma'no torayishiga uchraganligi, o'rta asrlar manbalarida bu kabi so'zlar har ikkala gender vakillari uchun ishlatilganligi misollar orqali dalillanadi. O'zbek madaniyatiga xos lingvokulturemalardan biri "*istarasi issiq*" sifatidir. Chunki o'zbek xalqining madaniyatida istara (yulduz) astroponimiga bo'lgan munosabat o'ziga xos, yulduz bilan bog'liq bir qator qadriyatlar mavjud. Rus madaniyatida bu tushunchaning o'zi ham mavjud emas, shuning uchun *istarasi issiqni* realiya birlik sifatida baholash mumkin bo'ladi [5.15].

N.Umarova Alisher Navoiy asarlari lisoniy-konseptual tadqiqini amalga oshirdi. Dissertatsiyada libos, rang, yosh, qiyos kategoriyalari va ularning semantik xususiyatlari lingvokognitiv asosda yoritilib, shoir ijodidagi qora, sariq, yashil va qizil ranglarining lisoniy, badiiy, diniy-falsafiy, tasavvufiy talqinlari ham sariq rang genezisiga doir qarashlar ilgari surilgan. Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan libos nomlarining hammasi ham bir paradigmaga mansub barcha ranglar bilan ma'noviy muvofiqlashavermaydi. Shoir asarlarida qizil rangining quyidagi paradigmatic qatorini kuzatish mumkin: *gulgun – gulrang, gulguna – qizil, gulgaz – ko'kimtir tovlanadigan qizil, arg'avongun – qizil, yoquti – qip-qizil, lolavor – loladay qizil, otashin – o'tday qizil, rummoniy – anor rang, shingarfiy – qizg'ish*. Navoiy she'riyatida qo'llangan ranglar nafaqat differensial semasiga ko'ra, balki qaysi libos nomlari bilan birikma hosil qilishi jihatidan ham farqlanadi. Shoir g'azallarida

barcha ranglar ham kiyim uchun belgi bo'la olmaydi. Tadqiqotda qaysi tarixiy rang nomlari qaysi liboslar bilan sintagmatik munosabatga kirisha olishi jadval asosida berib o'tilgan.

Shoir asarlarida qora leksemasining kiyim ma'nosida kelishi ham uchraydi va u "motam libosi" ni ifodalaydi.

Dissertatsiyaning bir fasli Navoiy asarlarida "rang" kategoriyasining lisoniy xususiyatlariga bag'ishlangan. Tadqiqotdagi ma'lumotlarga ko'ra, Navoiy asarlarining 1 jildlik lug'atida rang bildiruvchi birliklar soni 110 ta ekanligi ta'kidlanadi. Shoir asarlarida qizil rang 32 ta, oq rang 11 ta, sariq rang 15 ta, yashil rang 11 ta, ko'k rang 12 ta, qora rang 17 ta, aralash rang 6 ta, "sapsar" tushunchasi 5 ta, kulrang 1 ta leksema orqali ifodalangani aniqlangan va jadvallar asosida ko'rsatib berilgan. Bu sifatlar arab, fors va turkiy tilga mansub sifatlardir. Turkiy tillarda ranglarni jins doirasida farqlash mavjud emas, ammo bu arab tiliga xos jihat hisoblanadi. Shuning uchun tadqiqotchi ranglarning arab tilidagi jins tafovutlarini ham izohlaydi. Masalan, *asfar(sariq)*, *azraq(ko'k)*, *ahzar(yashil)* kabi ranglar muzakkar jinsiga taalluqli bo'lsa, *safro(sariq rang)*, *hamro(qizil)*, *ahmar(qizil)*, *savdo(qora)* kabi sifatlar esa muannas jinsiga xos vaznlar sanaladi.

Dissertatsiyada Navoiy asarlarida sariq rang tushunchasini ifodalaydigan *asfar*, *zarvash*, *zard*, *zarpaykar*, *zarrina rang*, *za'faroniy*, *kohiy*, *lemui*, *noranj*, *noranjiy*, *sandarus*, *safro*, *xazoniy*, *qahrabovash* kabi leksemalar ham borligini ta'kidlaydi [10.111].

G.Ismoilov o'zining "Frazeologizmlarda oq va qora konseptlarining idioetnik belgilari" maqolasida o'zbek, qozoq, qoraqalpoq tillari frazeologizmlarida ranglar, asosan, inson xarakteri va emotsiyasini ifodalashini aytib o'tadi. Maqolada qiyoslanayotgan tillardagi ramziy ma'no kasb etuvchi ranglar xilma-xilligi kuzatiladi, masalan, o'zbek tilida oq, qora, qizil, ko'k, sariq, qozoq tili frazeologizmlarida oq, qora, qizil, jigarrang va sariq, qoraqalpoq tilida esa oq, qora, qizil, sariq ranglari milliy xarakterni yuzaga chiqarishda xizmat qiladi [4.80].

Sifat bo'yicha eng so'nggi tadqiqot ishlaridan biri M.Xrojiddinova tomonidan yozildi. Bu dissertatsiya o'zbek tilidagi rang-tus sifatlarining konnotatsiyasiga bag'ishlandi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi uning rang-tus bildiruvchi ma'no guruhlariga tegishli lug'aviy birliklarning leksik-grammatik, mazmuniy, diaxron va me'yoriy asoslari yoritilganligi, turli turkiy tillardagi ko'rinishlari tizimga solinganligi, rang-tus semali shaxs, predmet, belgi va jarayon nomlarini anglatuvchi lug'aviy birliklarning struktur-semantik belgilari aniqlanganligi, bunday sifatlarning poetik nutqda qo'llanilishi me'yorlari haqida qarashlar berilganligi, rang-tus sifatlarining sinonimiya, antonimiya, graduonimiya munosabatlari, rang-tus sifatlarining o'xshatishli, metaforik, metonimik va epitet birliklar tarkibida kelishi o'rganilganligida deyish mumkin.

M.Xrojiddinova rang-tus bildiruvchi so'zlarning semantik taraqqiyoti va konnotatsiya hosil qilishdagi vazifasi haqida so'z yuritib, "oq" leksemasining 18 ta semantik farqlanuvchi tomonlari ko'rsatib beradi. Masalan, narsalarning oqligi: *oq qog'oz*, *oq mato*; nabotot olamining tusini ifodalash: *oq gul*, *oq qayin*; hayvonot olamini ifodalash: *oq ayiq*, *oppoq sigir*; parrandalar nomini atashda: *oqqush*, *oqqo'ton*; hunarmandchilik leksikasida: *oq suvoq*; kishining maqsad-niyatini ifodalashda: *oq fotiha*; yozuvchilik faoliyatida, insho yozishda: *oqqa ko'chirmoq*; idiomatik birliklar tarkibida: *manglayi oq bo'lsin*, *oq yo'l*; toponimlarda: *Oqtepa*, *Oqbuloq* va hokazo[11.21].

Xulosa. Sifat soʻz turkumi tilshunosligimizning turli davrlarida turli aspektlarda oʻrganilgan. Bu soʻz turkumi haqidagi qarashlar oʻrta asr manbalarida ham uchraydi. Shu kunga qadar Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib kabi ijodkorlarning asarlarida uchraydigan rang-tus sifatlari atroflicha oʻrganilgan. Oʻtgan asrda sifatlarning tilshunoslikning anʼanaviy yoʻnalishlari doirasida oʻrganilgan boʻlsa, bugungi kunda bu yoʻnalishlarga zamonaviy yoʻnalishlar ham qoʻshildi. Sifat darajalari turli tizimli tillar doirasida tadqiqqa tortilmoqda. Belgi bildiruvchi soʻzlarni qiyosiy va chogʻishtirma aspektda tadqiq qilish kuchaydi. Garchi belgi bildiruvchi leksemalar juda koʻp tilshunos olimlar eʼtiboridan chetda qolmagan boʻlsa-da, ularning tadqiq etilmagan qirralari hali koʻp. Shu sababdan, bugungi kunda ham bunday izlanishlar davom ettirilmoqda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Абдужаббарова Ф. “Қутадғу билиг”даги шахс белги-хусусиятини англатувчи лексика: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2011.
2. Содикова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974.
3. Зияев А. Турли тизimli tillar sifat darajalari kategoriyasining kognitiv tadqiqi masalalari. – Илмий хабарнома, АДУ, №3, 2018.
4. Исmoilov F. Фразеологизмларда оқ ва қора концептларининг идиоетник белгилари / Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – №3. – Б. 58-60.
5. Кадирова Б. Белги билдирувчи лексемаларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фанл. номз. дисс. АР. – Т.: 2019.
6. Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари: Филол. фан. номз. ... дисс. АР. – Т. 2004.
7. Маъруфов З. Сўз состави. От ва сифат. – Тошкент: Фан, 1966.
8. Пардаев З. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. – Самарқанд, 2004.
9. Тожиматов Ҳ. Сифат самемасининг реалашувида контекст: Филол. фан. номз. дисс. – Т.: 2007.
10. Умарова Н. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал tadqiqi: Филол. фан. номз. ... дисс. – Фарғона, 2021.
11. Xrojiddinova M. Oʻzbek tilida rang-tus bildiruvchi soʻzlar konnotatsiyasi: Filol. fan. nom. ... diss. – Qoʻqon, 2023.
12. Ўтанова С. Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси: Филол. фан. номз ... дисс. – Тошкент, 2017.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 9 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).